XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-50-98-1-18-K/24 Baliqchi tumani

Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri v.v.b X.Muxammadjonovning Baliqchi tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni hamda boshqa xarajat moddalaridan mablag‘ yo‘naltirish yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qaroriga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri v.v.b X.Muxammadjonovning Baliqchi tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni hamda boshqa xarajat moddalaridan mablag‘ yo‘naltirish yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2. Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashi deputatlarini mukofotlash (taqdirlash) uchun 30 mln. so‘m mablag‘ ajratilishiga ruhsat berilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Muxammadjonov) va g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (D.Qosimovlar) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq, ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda oliyalashtirilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Karimov) mazkur qarorni matbuotda e’lon qilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



ABDURAYIMOV
JASURBEK ODILOVICH